

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Teng

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

BUGUNGI O'QUVCHI
ERTAGA TALABA!



DUSHANBADAN

15 YOSHLI CHEMPION

Toshkent olimpiya zahiralari kolleji talabasi Aslon Gadoyev Samarqandda Respublika Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi sovrini uchun uyushtirilgan xalqaro turnirda o'z vazni toifasida oltin medalni qo'lga kiritdi. Seni qutlaymiz, bo'sh kelma, Aslon!

4,2 GEKTAR MAYDONNI EGALLAYDI

Sirdaryo viloyati markazida qurilayotgan «Mehribonlik uyi» 4,2 hektar maydonni egallaydi. Unda bosh binodan tashqari oshxona, sport maydonchasi, bog' va hovuz barpo etish mo'ljallangan. Ko'rdingizmi, bolalar, yurtimizda sizlarga e'tibor katta!

MAKTABIMIZGA SHOIR KELDI

Shahrimizdag'i 59-maktabda Sohibqiron Temur bobomiz tavalludiga bag'ishlangan ajoyib uchrashuv o'tkazildi. Unda O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali ishtiroy etib, Amir Temur hayotidan qiziqarli voqealarni so'zlab berdilar. Bilasizmi, bobomiz 12 yoshlarida bolalarcha sho'xlik-u o'yinlarni tashlab, katta hayot tashvishi bilan yashay boshlagan ekanlar?!

ROBINZON KARIMNING SARGUZASHTLARI

Bu kim ekan, deb hayron bo'lyapsizmi? U sizga o'xshagan bir bolakay, aniqrog'i, «Yangi Zilopiyadagi sarguzashtlar» kitobining qahramoni. Bu kitob «Yangi asr avlod» nashriyotida yaqindagina nashr qilindi. Unda muallif Muazzam Ibrohimova siz bolajonlarga oqtoshlik shumtakalarning sarguzashtlarini hikoya qiladi. Ajoyib voqealar oddiy qishloqlarning birida o'zimizning zamonda, oddiygina tengdoshlaringiz hayotida ro'y beradi.

Xullas, siz aziz bolalar uchun taqdim etilgan bu yangi kitobni o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

DUSHANBAGACHA

«YASHIL PATRUL» NI



BILASIZMI?



Men Sergeli tumanida yashashimdan faxrlanaman.

harakati a'zolari nazariga tushib qolishingiz mumkin. Ular esa tuman obodonchiligi uchun bel bog'lagan fidoyi o'quvchilardir. Harakat a'zolari... Keling, yaxshisi boshidan boshlasak:

2005-yil 31-martda tuman hokimiya Sergeli tuman yoshlarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarijalga etish, o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini foydali ishlarga yo'naltirish maqsadida, maxsus qaror qabul qildi. Unga ko'ra, tuman maktablarida ixtiyoriy ravishda «Yashil patrul» harakati tashkil etildi.

Avvaliga, har bir maktabda o'ttiz o'quvchidan iborat «Yashil patrul»chilar safi bugungi kunga kelib, ikki-uch barobarga oshib ketdi. O'quvchilar o'z hududlaridaga mevali va manzarali daraxtlarni asrab-ayaylab, ko'cha hamda ko'p qavatlari uylarning yo'laklarini toza turishi uchun hamisha hushyor turishadi.

Bugungi kunda uch yil oldin boshlangan harakat o'z samarasini bera boshladi. Tumanning shunday dahalari borki, ko'rjan odamning bahri dili ochiladi.

Harakat tashabbuskorlaridan birining «Yerda yetgan har bir narsa axlat emas, aql bilan qaralsa –



Agar bizga yer berishsa, o'z kuchimiz bilan xiyobon barpo etgan bo'lardik.

Yaqin o'rtada yo'lingiz Sergeli tumaniga tushmagan bo'lsa, bir o'ting. Lekin oldindan bir narsani aytib qo'ymoqchiman. Bu tumanda yo'lda ketayotib, pista chaqqan yoki sigaret qoldig'ini duch kelgan joyga tashlagan odam xijolat bo'lib qolishi aniq. Nima uchun, deysizmi? Chunki «Yashil patrul»

ne'mat», degan so'zlarini har bir kishini o'yantirib fikrlashga undaydi. Tumanda o'tgan yili 12 ming tub mevali, 163 ming tub gul ko'chatlari ekilgan bo'lsa, bu yil bu ko'rsatkichni yana-da ko'tarish borasida amaliy ishlar olib borilmoxda. «Yashil patrul»chilar esa o'sha nihollarni nest-nobud bo'lmay gurkirab o'sishi uchun o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Kuni kecha tuman hokimligida «Yashil patrul» harakati a'zolari ishtirotida so'nggi uch yil mobaynida tumanda olib borilgan ishlarning sarhisobi bo'lib o'tdi. Slaydlar orqali ekranda ayrim hududlar, maydonlar, binolar va ko'chalarining uch yil oldingi ahvoli-yu bugungi holati ko'rsatilib taqqoslab berildi. Iqtisodiyot, ma'naviyat va ma'rifat, obodonlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar salmog'i o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Sergelilik tengdoshlaringizning olib borayotgan xayrli ishlarning ayrimlaridan boxabar bo'ldingiz. Agar siz ham do'stlaringiz bilan hamjihatlikda shunday harakatga qo'shilsangiz, ertaga shahrimiz, keyin esa butun respublikamiz yana-da ko'rkmashib ketadi. Shunday qilaylikki, hududimizga kirgan odam qo'lidagi keraksiz narsani tashlashga iymansin. Oddiy tayoqni suqib qo'ysang, yaproq chiqartiradigan ona yerimizni birgalikda obodonlashtirib, asrab-avaylaylik.




Maktabimiz atrofi tanib bo'limas darajada go'zallashib ketdi.



Janubiy Koreya go'zal mamlakat ekan, ammo O'zbekiston unda go'zal.

Yusuf ABDULLAYEV



G'OLIB BO'LDIM

Orol haqida nimalarni bilasiz? Shu mavzuda insho yoza olasizmi? Yaqinda maktabimizda «Orol muammosi bolalar nigohida» mavzusida o'tkazilgan insholar tanlovida men o'zimni sinab ko'rdim. Va yuqori sinf o'quvchilari orasida men yozgan insho eng yaxshisi, deb topildi. So'ng, shahar va viloyat bosqichida ham g'olib bo'ldim. Bilasizmi, men yozning qoq o'rtasida oppoq qorli dalalarni ko'rganman. Siz ham ko'rsangiz, hayron qolasiz. Bu sho'r bosgan ekin maydonlari bo'lib, menga shunday ko'ringan ekan. Shundan ham ko'rinish turibdiki, orol masalasi o'qituvchim aytganlariday, global muammo ekan.

Munisa KARIMOVA,
Xorazm viloyati, Urganch
shahridagi 5-maktabning 6-«D» sinf o'quvchisi

MENDA TAKLIF BOR...



Sinfimizdageng a'lachi dugonamning sizning tahririyatingizdan olgan «Faxriy yorlig'i» bor. Mening unga havasim keladi. Shuning uchun gazetadagi «Vatan ichra mo'jaz vatanim», «A'lochilar» kabi tanlovlardavom ettirilsa-yu, «Tong yulduzi»ning faol o'quvchilari biz uchun sharaflib o'lgan «Faxriy yorliq»laringiz bilan taqdirlansak, xursand bo'lardik. Yangi tanlovlardan ham tashkillashtirilsa, sizlarning bu ishlarining bizni yana-da a'lo o'qib, tinmay izlanishga chorlardi.

Jobir ISMATULLAYEV,
Namangan viloyati, Koson tumanidagi
11-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining
10-ekologiya guruhi o'quvchisi

GUL YIG'ISH HAFTALIGI

Maktab – bu bizning ikkinchi uyimiz. Uni ko'kalamzorlashtirish, ozoda saqlash esa vazifamiz ekanligini bilasiz-a? Shuning uchun bizning maktabda o'quvchilar shanbaliklardan qochishmaydi. Aksincha, mehnat darsini ham maktabimiz hovlisida o'tkazib, gullar ekamiz. Hatto sinflardagi gullarning sonini ko'paytirish uchun gul yig'ish haftaligini o'tkazdik. Va shunday qilib, maktabimiz «Eng ko'rkmavobod maktab» nomiga ega bo'ldi.

Mukarram OTAMURODOVA,
Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi
23-ixtisoslashtirilgan maktabning
8-sinf o'quvchisi



YANA UYALI TELEFON?..

Respublika olimpiya zahiralari kollejida «O'quvchi yoshlar o'rtasida turli ko'rinishdagi huquqbazarlik, jinoyatchilikning oldini olish, ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlash, jamaot tartibini saqlash» mavzusida davra suhbati bo'lib o'tdi.

Chilonzor tumani Ichki ishlarni bo'limi vakillari, polkovnik Oleg Shishkov hamda kapitan Erkin Otamurodov, tuman ma'naviyat va ma'rifat targ'ibot markazidan Do'stmetova, Toshkent shahar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasidan Ra'no Boboyeva ishtirotida o'tgan qiziqarli muloqotning ahamiyati ancha yuqori bo'ldi.

Tajribali Ichki ishlarni xodimlarining hayotiy xulosalarini tinglagan yoshlar jinoyatchilik va uning yomon oqibatlaridan yana bir bor ogoh bo'lishdi. Hudud noziri Erkin Otamurodov ba'zi hollarda kasb-hunar kollejlari va akademik-litsey o'quvchilari orasida sodir etilayotgan mayda bezoriliklar, o'zaro janjallarga to'xtalib, ularning turli jinoiy javobgarlikka tortilganini aytib o'tdilar. Ayniqsa, bugungi kunda uyali telefonlardan noto'g'ri foydalananish oqibatida turli ko'ngilsizliklar sodir bo'layapti, deya ogholantirdilar.

Davra suhbati davomida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Kollej o'quvchilari bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha esa tuman ma'naviyat - targ'ibot markazi bilan turli tadbirlar o'tkazishni kelishib oldilar.

Muzaffar AHMEDOV

OROMGOH MENGA YOQDI



Toza havo – tanga davo. Zomin tog'larining shifobaxsh havosi ming bir kasalliklarga davoligini ko'pchilik eshitgan bo'lsa kerak. Shu sababli, buvijonim bilan yaqinda Jizzaxdagagi «Zomin» sihatgohiga bordik. Oromgoh baland tog'lar orasida joylashgan bo'lib, nafas yo'li kasalliklariga davo ekan. Buvim bilan toqqa chiqdik,

tog'da o'tlab yurgan qo'y-qo'zilarni, bo'ri uyasini, quyon izlarini ko'rdik. Tog' etagidagi o'tovda bir ayol qozonda sut qaynatayotgan ekan, bizni yog'solingen sut bilan mehmon qildi. Sutning mazasi og'zimda qoldi. Meni zavqlantirgan narsa katta-katta qoya toshlar bag'ridan sizib chiqayotgan buloq bo'ldi. Tog' suvi juda ham muzdek ekan. Egnimizga qalin kiyimlarni kiyib olib, toqqa giyoh tergani chiqdik. Qoraqand, na'matak, zusilin terdik.

Zomin tog'larini yaxshi ko'rib goldim va kelgusi yil yana borishni niyat qildim.

Dildora ABDUVOITOVA,
Toshkent shahridagi
324-maktabning 3-sinf o'quvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETINING 90 YILLIGINI
NISHONLASH TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda va butun O'rta Osiyo mintaqasida eng nufuzli va yetakchi oly o'quv yurtlaridan biri bo'lgan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, yurtimiz ilm-fani va madaniyati, zamonaviy ta'lif tizimini rivojlantrish, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash, yigit-qizlarmizni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi beqiyos o'rnii va ulkan hissasini inobatga olib hamda ushbu bilim dargohi tashkil etilganining 90 yilligini munosib nishonlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va Fanlar akademiyasining 2008-yil sentabr oyida O'zbekiston Milliy universitetining 90 yilligini nishonlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. O'zbekiston Milliy universitetining 90 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi ilovaga muvoqiq tasdiqlansin.

3. Tashkiliy qo'mita bir hafta muddat ichida ushbu sanaga bag'ishlangan tadbirlar rejasini ishlab chiqsin hamda ularning «Yoshlar yili» Davlat dasturida belgilangan maqsad va vazifalarga uyg'un va hamohang ravishda o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratsin.

2008-yilning avgust oyida «Mamlakatimiz olyi ta'lif tizimi va ilm-fani rivojida O'zbekiston Milliy universitetining roli» mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazishni yuqori saviyada tashkil etsin.

2008-yil sentabr oyida «Yoshlik» talabalar shaharchasi stadionida «Yoshlar bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir» shiori ostida mamlakatimiz olyi o'quv yurtlari talabalarining festivalini tashkil etishni ta'minlasin.

4. Vazirlar Mahkamasiga O'zbekiston Milliy universiteti majmuasi hududida bayram oldidan keng ko'lmandagi qurilish va rekonstruksiya, ta'mirlash ishlari olib borish, o'quv binolari, talabalarning turar-joylari va boshqa ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini har tomonlama obod qilish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish topshirilsin.

5. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa omnaviy axborot vositalariga mazkur sanani o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsия etilsin.

6. Mazkur Qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rnbosari R.Qosimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Toshkent shahri, 2008-yil 9-aprel

I.KARIMOV



TO'QSON YOSHING MUBORAK!

Sen ajdodlar armonisan, ma'rifatning bulog'i,
O'zbekgimning iftixori, sen egzilik chirog'i,
Kelajakka yo'lboshchisan, ona xalqim ardog'i,
Sen Rustam-u Tohir Malik ko'zlarining qarog'i.
To'qson yoshing muborak, misli sajdagohim manim,
Ko'hna Turon zamindida nur taratgan maskanim!

Qaldirkochlaring bu kun ko'klarda parvoz etib,
Munavvar qori ustozning ruhtarini shod etib,
Bergan o'gitlaringni dillariga jo etib,
Qayda bormay tabarruk noming dilda yod etib,
To'qson yoshing muborak, misli sajdagohim manim,
Ko'hna Turon zamindida nur taratgan maskanim.

Quchog'ingda o'tar oltin talabalik davrim mening,
Yigit-qizlar bilan mudom to'liq bo'lsin bag'ring sening,
Sen saodat mash'alisan, yerdagi ostobim mening,
Cho'lp'on-u Fitratlar ruhi bo'lsin qalqoning sening,
To'qson yoshing muborak, misli sajdagohim manim,
Ko'hna Turon zamindida nur taratgan maskanim!

Ozoda MUHAMMADIYEVA,
O'zMU geografiya fakultetining 4-dosqich talabasi

«ZMU - mamlagatimizdagi etakchi olyi taylim muassasasi»

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

GAZETA
1918 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN

2008 yil, aprel



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2008-yil
«Yoshlar yili»da amalga oshiriladigan

CHORA-TADBIRLAR

Ta'lif tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatlil hal etilsa, ijtimoiy-siyosiy iqlim keskin o'zgartiradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.

Islom KARIMOV

Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan o'chanadi. Salohiyatga esa turli yo'llar bilan erishish mumkin. Shu sababli, O'zbekistonda istiqloolning dastlabki yillaridan boshlab aqli, bilimdon, zukko, ham ma'nani, ham jismonan chiniqqan komil insonni tarbiyalashga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimovning 2008-yil 29-fevraldaggi «Yoshlar yili» Davlat dasturi to'g'risidagi Qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2008-yil 6-martdagи 58-buyrug'iда belgilangan vazifalarni bajarish va yoshlarning yetuk inson bo'lib kamol topishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda sog'lm turmush tarziga intilishini shakllantirish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish, yoshlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini kuchaytirish, demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal etadigan, mamlakatimizni isloh qilish va yangilash bo'yicha belgilab olingan yuksak maqsadlarga erishish yo'lida hal qiluvchi kuch, tayanch va suyanch bo'lishga qodir yosh avlodni yetkazishga doir ta'lif-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirishga oid O'zbekiston Milliy universiteti rektorining buyrug'i asosida tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Dasturga muvoqiq 2008-yil «Yoshlar yili» Davlat dasturining Milliy universitet miqyosida ijrosi monitoringini olib borish bo'yicha ISHCHI GURUHI, «Yoshlar yili» Davlat dasturidagi vazifalarni universitetda amalga oshirish va muvoqilahtirish bo'yicha KENGASH tuzilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yil 7-dekabrdagi «Asosiy maqsadimiz – yurtimizni erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish», 2008-yil 8-fevraldaggi «Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir» mavzusidagi ma'ruzalari mohiyatini, «Yoshlar yili» Davlat dasturining ahamiyatini aholi, xususan, talaba-yoshlar o'rtasida tushuntirish bo'yicha targ'ibot ishlari tashkil etilgan.

Milliy universitetda «Yoshlar yili» Davlat dasturining mazmun-mohiyatini, ahamiyatini professor-o'qituvchilar, talabalar, xususan, aholi hamda o'quvchi-yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish muhim va birinchi galadagi dolzorb vazifalar qilib belgilangan. Shu maqsadda, dastur doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirilmoxda:



I. Yoshlarning ma'naviyatini yana-da to'liq ta'minlash va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ huquqiy bazani takomillashtirish.

II. Ta'lif sohasidagi ilgari qabul qilingan Umummilliy Davlat dasturlarining so'zsiz bajarilishini ta'minlash.

1) Ta'lif jarayonini uning uzluksizligi va davomiyligi, iqtisodiyotning real tarmoqlari va sohalarida talab katta bo'lgan mutaxassislar tayyorlash nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish.

2) Ta'lif muassasalarini qurish va rekonstruksiya qilish, ularni mebel, zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalar, kompyuter texnikasi va zarur kommunikatsiya tizimlari bilan jihozlash.

III. Ta'lif va kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, mustaqil fikrlaydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqod va qarashlarga ega bo'lgan yoshlarning tarbiyalash.

IV. Yosh avlodning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish tizimini yana-da takomillashtirish.

V. Yoshlarning, ayniqsa, kichik shaharlar va qishloqlarda ishg joylashishga ko'maklashish.

VI. Bolalarning ijodiy iqtidori va qobiliyatini barvaqt aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratish.

VII. Yoshlarda sog'lm turmush tarziga intilishni shakllantirish, yoshlar sportini omnaviy rivojlantirish tizimini yaratish.

VIII. Yosh-ojalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning ma'naviy, boy va jismonan sog'lm bolalarni tarbiyalashi uchun munosib uy-joy va maishiy turmush sharoitlarini yaratish.

IX. «Yoshlar yili» Davlat dasturining maqsad va vazifalarini, dasturni amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan keng ko'lmlari axborot-targ'ibot ishlarni tashkil etish.

QIRQ QUVONCH

Bir yigit qirq yilda bino bo'ladi, degan gap bor. Ushbu hikmatni qadrdon jurnalistika fakultetimizga nisbatan ham aytса bo'ladi. Tashkil etilganiga qirq yil bo'lgan fakultet aynи kuchga to'lgan, qирchillagan yigitga aylanib turibdi. Tug'ilishi esa 1949-yil sentabrga, filologiya fakulteti bag'ridа jurnalistika bo'limi ochilgan pallaga to'g'ri keladi. Uning ilk talabalari Ismoil Sulaymonov, Yahyo To'xtayev, Muhiddin Jalolov, Tilagan Najmuddinov, Asil Rashidov, Rasul Rahmonov, Jonrid Abdullaxonov, Sobit Toirov, Tohir Pidayev, Vohid Abdullayev va boshqalar (jami 28 qaldig'och) keyinchalik ijod, ilm sohasida taniqli kishilar bo'lib yetishdilar.

Bizning o'ttiz yilcha umrimiz yosh, kuchg'ayratga to'lgan davrimiz ana shu fakultet bag'ridа kechdi, binobarin, yorqin, nurli, armonli, xush-noxush xotiralarimiz bisyor, albatta.

Biz fakultetga jangchi, jurnalist, olim, murabbiy, nafaqat O'zbekistonda, balki sobiq ittifoqda jurnalistika sohasida birinchi fan doktori bo'lgan To'g'on Ernazarov dekanlik paytida ishga kelgan edik.



«Olmaning tagiga olma tushadi», deganlari rost ekan. Rahmatli To'g'on akaning to'rg'ich o'g'li, fan doktori Qudrat Ernazarov hozir ushbu fakultetga boshchilik qilayotir. Birgina kafedradan iborat bo'limdan 7 kafedraga, oliy jurnalistika kurslariga, magistratura, aspirantura, doktoranturaga, 700 dan ortiq talabaga, fan doktorlariga, qanchadan-qancha ilmiy tadqiqotlarga, kitoblarni nashr etadigan fakultetga aylanish bu aytishga oson. Yodimizda, 1992-yili fakultet tuzilganligining 25 yilligini n i s h o n l a s h g a Moskvadan kelgan mashhur olimlar Ya.Zasurskiy, R.Ovsepyan ko'p iliq gaplar aytishgan, yurtimiz, dargohimiz,

olimlarimiz jahon miqyosida qadrlanishini qayta-qayta ta'kidlashgan edi.

Shu o'rinda biz bir taklifni aytib o'tishni lozim topdik. Ya'ni, jurnalistika fakultetiga ustozimiz To'g'on Ernazarovning nomini berish lozim, deb o'yaymiz.

Qirq yoshing muborak, qadrdon fakultetimiz!

*Saydi UMIROV, Boybo'ta DO'STQORAYEV,
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan yoshlar murabbiysi*

**UNIVERSITETIMIZ
USTUNLARI**

Biz sarlavhada ustozlarimizni nazarda tutayotganimizni anglagan bo'lsangiz kerak. Axir oliy o'quv yurtimizning dong'i dunyoga ketgan qanchadan-qancha obro'li o'qituvchi-yu olimlari bor. Ularni ulug'lash, buyuk xizmatlarini qadrlash esa yaxshi an'anaga aylangan. Shu munosabat bilan yaqinda universitetda o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan professor Miraziz Mirtojiyevning qutlug' 80 yilligi munosabati bilan anjuman o'tkazildi. Mehmonlarning aksariyat qismini ustoz rahbarligida yetishgan fan nomzodlari, dotsent va professorlar tashkil etdi. Ustozning ilmiy va hayotiy faoliyati haqida so'zga chiqqan o'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, professor Ra'no Sayfullayeva Miraziz Mirtojiyevning mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'zbek tilshunosligi rivojiga salmoqli hissa qo'shganligi va dolzarb mavzularda bir qancha kitob, darsliklar muallifi ekanligini faxr bilan aytib o'tdilar. Umuman aytganda, ushbu dargoh eng salohiyatlari, tajribali fan arboblariga ega ekani bilan ham mashhurdir.

*Pokiza JABBOROVA, Ra'no HAKIMJONOVA,
o'zbek filologiyasi fakultetining 2-bosqich talabalar*

**OLQISH
OLGAN
OTABEK**

«Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovi haqida ko'p eshitgansiz-a?

Universitetimizda ham uning sovrindorlari bor. Bu yilgi tanlovida «Badiiy ijod va publisistika» yo'naliши bo'yicha g'olib bo'lgan Otobek Rahimov bizning jurnalistika fakultetining 1-bosqich talabasi. Universitetda u kabi iqtidorli talabalar talaygina. Ular o'quv yurtimizga munosib bo'lishga intilayotgan yoshlar. Kursdoshimiz Otobek aytganiday, axir Milliy universitet talabasi degan nom hammaga ham nasib qilavermaydi.

— Men, avvalo shuni ta'kidlashni istardimki, universitetimizning 90 yillik tantanasi aynan «Yoshlar yili»da nishonlanayotgani ajoyib hodisa. Mening «Kelajak ovozi» tanlovida g'olib bo'lganimni esa balki to'ya to'yna deyish mumkindir. Bu tanlovida ko'rdimki, bugun biz yoshlar o'z iqtidorimizni namoyon qilishimiz uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun endi g'olib bo'ldim, deb kerilib yurish bilan ish bitmaydi. Aksincha, g'oliblik yangi izlanishlarga undaydi.

Sadoqat BESHIMOVA

QORAQALPOQ KELINI

O'zbek xalqi bilan Qoraqalpoq xalqining urf-odatlari bir-biridan farq qiladi. Qoraqalpoqlarda odat bo'yicha qiz olib qochish azaldan udum bo'lib kelgan. Olib qochilgan qiz taqdiri ne kechadi, deyishingiz mumkin. Aslida, bu ish ikki tomonning kelishivi orqali amalga oshiriladi. Agar u xonodonni xushlamasa, qizning ota-onasi uzr aytib olib ketishadi. Agar qizga va uning ota-onasiga xonodon egalari ma'qul kelsa, u yerda qoldiradi. Shundan so'ng, olib qochilgan qiz kelinlik libosini kiyadi, vazifasini bajarishga kirishadi. Yangi kelin odatda erta turib hovlini supuradi, uyni tartibga keltiradi. Nonushta dasturxoniga non, bo'g'irsoq, shirinliklar bilan shirchoy tayyorlab, oila a'zolarini dasturxonga chaqiradi.

Qoraqalpoq kelini hech qachon turmush o'rtog'ini ismini aytmaydi. Masalan, qayinsinglisi ismini o'zgartirib Lysuluv, Oqqiz, Oppoqqiz, Erkaqiz, qayinukasini To'rabola, Mirzabola, Kenjatoy deya chaqiradi. Qoraqalpoqlarda yana bir urf-odat borki, bu kelin va kuyovning to'y kunidan boshlab yangi ota-onali bo'lishi, ya'ni «tutingan ota-oña» topishidir. Bu tutingan ota-oña kuyovning oilasiga yaqin bo'lgan insonlar bo'ladi.

Qoraqalpoqlar mehmon kutishdan charchamaydilar, mehmonga tovuq go'shtidan tayyorlangan «Qayish» tayyorlab berishadi. Qoraqalpoqlar bu taomni har xil nomlar bilan atashadi: «Besh barmoq», «Gurtik». Dasturxonda albatta shirchoy va bo'g'irsoq har doim bo'ladi. Yana bitta antiqa taom borki, uning nomi «Oq sovloq» bo'lib, undan tayyorlanadi.

Qoraqalpoqlarning «Qora uy», ya'ni «o'tov»lari bor. «Qora uy»lar asosan «Navro'z» bayrami kuni ko'payib ketadi. Chunki qoraqalpoqlarda yangi yilga yangi uy bilan kirib borish baxt-saodat belgisi hisoblanadi.

*Dilnora ABDULLAYEVA,
jurnalistika fakultetining 4-bosqich talabasi*



TARADDUD

Gimirlaydi tuproq oralab,
Has ostidan mo'ralar sekin.
Bu bahorning qadamlarimi
Yo mehnatkash chumolimikin?
Kechalarda ko'rinnas oy ham,
Ketib yangi oshyonlariga.
Cho'chib yomg'ir tomchilaridan,
Kirdi hanal ayvonlariga.
Sog'ingandir ko'klam chechagin,
Kelsa avval erkalar qizin.
Ariqlarga chiqar yetaklab,
Bitta yaproq yozgan yalpizin.
Jajjigina jismida uning,
Ming-ming turfa tarovvati bor.
Bilmam uning mitti bo'yiga,
Qaydan sig'di bunchalar ifor?!
Fursat kutar dov-u daraxtlar,
Har kurtagi uyg'onmoqqa shay.
Soniyalarini yiroqlashtirib,
Kelaqolmas ko'klamoq atay...
Hasrat qildi so'rida qolgan
Bukri tolning eski yog'ochi.
Kutaverib qadamlaringni,
Bodomlarning oqardi sochi.

Nodira NORTOYEVA,
O'zMU talabasi

QUTLAGIN BAHOR


Bahorim, tinglagin yuraklar ohin,
Quloq tut armonning dil so'zlariga.
Muzlarin eritgin muzlagan qalbning,
Qayta mur ato et qalb ko'zlariga.
Inson hayotini umidga to'ldir,
Yomg'ir bo'l, yuvilsin yillar g'ubori.
Maysadek ko'karsin yangi orzular,
Barq urib gullasin umid bahori.
Sabo bo'l, eltuychi ezu niyatni,
To'fon bo'l, parchala armon toshini,
Sen shunday ilitgin inson qalbini.
Qutlagin yurtimning keksa-yoshini.

M. SAFAROVA

**QO'L USHLASHIB
YURIBMIZ MANA...**


Sendan qolgan xotira bilan,
Qo'l ushlashib yuribmiz mana.
Sensiz o'tgan har dam, har onim,
Seni yodga soladi yana.
Vaqt oqadir, sokinlik oqar,
Yodga tushar mash'um sensizlik.
Sabr charchar, ko'ngilni yoqar,
Hajr oni mash'um cheksizlik.
Men bot yo'lda, hamrohim sukut...
U ham, men ham so'zlamaymiz, jim.
Ey azobim, azodli sukut,
Hamon sen-la majruh ilinjam.
Qo'l ushlashib yuribmiz mana,
Sendan qolgan xotira bilan...

Shuhrat HAYDAROV,
2-bosqich talabasi



Qo'lim kalta, yetmaydi oyga,
Nima qilay, do'st-u yoronlar?!
Ash'or bitdim, ko'kdagi oyga,
Sevib qoldim, do'st-u yoronlar!
U yashirar mendan yuzini,
Sevib qoldim oyning qizini.
Tunim o'tar oyga termilib,
Menga sirdosh olis yulduzlar.
Oyning qizi kuzatib zimdan,
O'zin olib qochar kunduzlar.
U yashirar mendan yuzini,
Sevib qoldim oyning qizini.
Oyning qizi, soching silashga
Yerda turib qo'lim yetmaydi.
Tunda bergen jarohatlaring,
Yuragimda hecham bitmaydi.
Yashirmagin mendan yuzingni,
Sevib qoldim, sanam o'zingni...

O'rzbek TOG'AYMUROD



(Esse)

Bolaligim! Beg'ubor gulim mening.
Esingdami, loy ko'chada diydor
ko'rishganimiz?! Qo'llarimdan tutib,
issiq quchog'ingga olganlaring...
Majnuntolning kokillariga osilib,

O'zbekiston Mustaqil
bosma ommaviy axborot
vositalarini va axborot agentliklarini
qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish
jamoat fondi tavsiyasi asosida
chop etilmoqda.

VATAN

Vatan nima o'zi, qandayin kenglik,
U qanday diyorki, biyron so'ylatar?
Bormikin dunyoda unga bir tenglik,
Nega shoirlarin jo'shib kuylatar?!
Vatan nima o'zi, ohangrabomi,
Nega yurak talpinar unga yiroqdan?
Vatan nima o'zi, yo dilrabomi,
Ko'rmasa o'rtanar qalblar firoqdan?!
Vatan nima o'zi, qishlari bahor,
Har bir gul g'unchasi galbin parchasi.
Vatan nima o'zi, tunlari nahor,
Nega illomberar dilga barchasi?!
Vatan nima o'zi, uni deganda,
Pisand qilmas inson shuhratni, shonni.
Har qarich tuprog'i jon qadar azis,
Nega fidolikka undar insonni?!

Ozoda MUHAMMADIYEVA

Adabiyotga, she'riyatga ishtiyoyimiz
baland. Kelgusida O'zbekiston Milliy
universitetining jurnalistika fakultetida
tahsil olishni xohlaymiz. Buning uchun esa
hozirdanoq puxta bilim olishimiz,
qalamimizni charxlab borishimiz
lozimligini yaxshi bilamiz.

She'riy mashqlarimizni siz
ham bir o'qib ko'ring-a:

**BAHOR**

Bugun lolazorlar ko'rki betimsol,
Tunning so'chlari ham bo'yaldi oqqa.
Tongning yuzin silab, yashnatib bahor,
Shodlik ato etdi butun borliqqa.
Beg'ubor qalbimda uyg'ondi hayrat,
Sahardan poymga bosh egdi gullar.
Bahorim, o, bahor, orzuli dunyo,
Olislarga chorlar umidli yo'llar.

Gulbahor IBROHIMOVA,
Samarkand viloyati, Paxtachi tumanidagi
22-o'rtta maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTON

Bir o'lka bor, ezzuliklarga
To'ldirgudek bo'lar dunyonи.
Sirdaryosi zar kokil misli,
Tomiri derlar Amudaryoni.
Toshkenti bor, betimsol poytaxt,
Ezzulikka qo'yilgan tamal.
O'zbekiston – betakror cho'ng taxi,
Vatan menga tanho, mukamma!

Fazila MAJDICOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon
tumanidagi 51-maktab
o'quvchisi

NURLI MANZILLAR SARI

sabolarning bag'rida
erkalanganimiz...

Bolaligim! Shabnam yanglig' gul
yanog'iga qo'ngandy, bir kelib,
baxtiyorlik nurlariga
cho'lg'ontirding-u, umrim karvoniga
kapalakday qo'nib ketaverding!
Sho'xliklarning tulporida qanchalar
o'ynoqladik, yayrab o'sdik.

Bolaligim! O'ylab qarasam, sen
bizni chinakam baxtning,
quvonchlarning vodiysida sayr
ettirding. Va sezdirmaygina
ulg'aytirib, hayotning qaynoq
quchog'iga kuzatding.

Bolalikdagi oppoq orzularim
ijobat bo'lib, O'zMUning jurnalistika
fakulteti talabasi bo'ldim.

Turli nashrlarga maqola tayyorlar
ekanmiz, bu sohada shunchaki qalam
uchida yozish mumkin emasligini, biringa
so'z aytmoqqa qancha mas'uliyat,
hayajon va aql kerakligini angladim.

Jurnalist bu so'z kishisidir. Zero,
yozgan har bir satringiz ko'ngil toringizni
chertmas ekan, o'zganing qalbida navo
tarata olmaysiz. Kerak bo'lsa, dunyonи
titratib kuling, olamni yig'latib yig'lang,
yuraklarning muzini eritib, olov qalang.
Ana shundagina maqsadingizga erishasiz.
Jurnalist qachon xalqning yuragidan joy
egallay oladi? Qachonki, kimningdir
dilidagi so'zini aytga olsa...

Ko'nglim hasrat-u quvonchlarga
to'lib, daryo misol qirg'oqlardan toshib
ketsa, mittigina qoraqosh qalamga
suyanaman. Habibim esa yuragimdagи
og'riqli so'zlarni terib-terib olaveradi.
Mittigina qoraqoshim, endi sen men
bilan yelkadosh, sirdosh,
maslakdoshsan. Shunday ekan, yonib
kuyla, menga ham kuylashni o'rgat.

Yorqinoy UMAROVA,
jurnalistika fakultetining
1-bosqich talabasi





Dunyoda ulug' zot onadir, ona,
Men uchun ulug' zot onadir, ona.
Yurgan yo'lingizga gullar poyondoz,
Azizim onajon, sizsiz yagona...
Shu ulug' vatanda omon bo'lingiz,
Faqat yangrab tursin xandon kulgungiz.
Uzun, ravshan bo'lsin hayot yo'lingiz,
Ozorlar ko'rmasin munis ko'nglingiz.

ONAJON

ILK SHE'R HAYAJONI

Bu she'rimni yozganimda, jajjigina qizaloq edim. 8-Mart bayrami arafasida o'qituvchimiz insho yozdirdilar. Uning xotima qismiga yuqoridagi she'rimni ilova qilib o'tgandim. Ustozim inshomni a'loga baholadilar.

— Oyijon, sizga atab bir she'r yozdim, o'qib beraymi? — dedim uyg'a kelgach. Shu onda validamning munis qaroqlarida bir chaqnoq o't yillillab ketgandek bo'ldi va:

— Qani, shoira qizimdan she'r eshitaylikchi, — dedilar.

Oyimdan uyalganimdan she'rimni yoddan bilsam-da, qog'ozdan ko'zimni uzmay o'qib berdim. Oyim jim turardilar. Nafasim ichimga tushib ketdi. «She'rimni

bir og'iz «yaxshi» deb ham qo'ymadilar-a», deya o'ksindim. Shu payt qog'ozim ustiga bir tomchi suv tushdi. Oyimga qarasam, ko'zlarji qiqqa yosh. Meni mahkam bag'irlariga bosib: «Rahmat, qizim, bu men uchun eng katta sovg'a bo'ldi» deganlarida, juda xursand bo'lib ketgandim...

Mana, oradan yillar o'tdi. O'sha she'rimni hozir o'qisam, ancha-muncha kamchiliklarini ko'raman. Lekin baribir oyimni ko'zlariga yosh olib quvontirgan she'rim barcha mukammal she'rlardan-da, a'loroqdir.

Feruzabonu BERDIYEVA,
jurnalistika fakultetining
1-bosqich talabasi

BAXTI KULGAN YOSHLARMIZ

Ma'lumki, o'tgan yili Prezidentimiz Islom Karimov 2007-yilni «Jitmoiy himoya yili» deb e'lon qilgan edilar. Joriy yilda barcha talaba yoshlarga katta e'tibor berildi. Oliy va o'rta o'quv yurtlariga kiritish uchun juda ko'p imkoniyatlar, imtiyozlar yaratildi. Shularning o'zi biz uchun katta mukofot. Ammo, qarangki, bizlar yana Prezidentimiz va xalqimiz e'tiboridamiz. Chunki yurtboshimiz 2008- yilni «Yoshlari yili» deb baralla e'lon qildilar va kelajakda yoshlarga yana ham ko'proq e'tibor berilishini aytdilar. Prezidentimiz so'zlagan nutqining intihosida shunday deydilar: «Farzandlarimizga nafaqat ishonch bildirish, balki amalda uni qo'llash uchun maydon yaratishimiz kerak». Maydon yaratildi va yana-da keng yaratilmoqda. Bizlarning vazifamiz esa xalqimiz, Prezidentimiz, otanamizning ishonchini oqlashdir. Bizlar kelajagi porloq yoshlarmiz!

Mohigul ABDULLAYEVA,
jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi



Hamma narsa Vatanga muhabbatdan boshlanadi. Shuning uchun ham, aziz o'quvchim, bugun biz ana shu muqaddas tuyg'u haqida Sen bilan ko'proq gaplashyapmiz. Ilm olish ham Vatanga muhabbatning bir ko'rinishidir. Chunki olgan biliming bilan ertaga shu yurtga, shu aziz makonga xizmating singadi. Ilmlı kishi o'z ota-onasiga, eliga vafovodor va sadoqatl bo'ladi. Sa'diy Sheroyi yozadi:

O'g'liga otasi qildi vasiyat:
«Baxtiyor, bolam, quy qulog'ingga pand:
O'z eliga vafo qilmagan kishi,
Na sevimli bo'lur va na donishmand».

Ilming yo'li og'ir, deydilar. Darvoqe, u nina bilan quduq qazishdir. U yana o'nqircho'nqirlardan, tog'-u toshlardan, baland dovonlardan, qil so'qmoqlardan o'tish ham demakdir. Yana u sabr-toqat, bardosh, mustahkam iroda hamdir. Afsuski, bu jihatlar hammada ham yo'q.

Ilmsiz kishiga ish buyurgandan ko'ra, o'zing bajarganining ming marta a'lo. Bil'aks, uning noshudligi tufayli kulguga qolishing, obro'ying to'kilib badnom bo'lishing ham mumkin. Shuni bilgingki, chala ish hamisha tashvish keltiradi.

SHAHNOZA tayyorladi

DONO
O'RGANIB BO'LUR

Buyurmas aqlli kishi hech mahal
Ta'mizsiz kishiga muhimroq bir ish.
Bo'yra to'qigan ham to'quvchi, lekin
Qo'lidan kelarmi ipak ip to'qish.

Dil so'zlar

Yurtimizdagi eng yetakchi va nufuzli oliygochlardan biri bo'lmish O'zbekiston Milliy Xususan, uning jurnalistika fakultetini bir yilda minglab yigit-qizlar tamomlab, ommaviy axborot vositalarida faoliyat ko'rsatishyapti.

«Tong yulduzi» gazetasi tahririyatida faoliyat maskanda tahsil olgan ijodkorlar talaygina. Bugun ular so'z so'rab, qadrond bilim maskanlarini, aziz ustozlarini qutlamoqdalar:

Yurtimizda yana bir bayram shukuhi kezib yurgan, O'zbekiston Milliy universitetining 90 yilligini nishonlashga qizg'in hozirlik ko'rilyotgan ayni damlarda biz — bu dargohning sobiq talabalari qalbida ham allanechuk hayajon, ko'tarinki kayfiyat hukmron. Zero, bu qutlug', tabarruk ziyo maskanining bayrami bizniki hamdir!

Universitetni tamomlaganimga ancha yillar bo'lsa-da, bizni jurnalistikaning sirli olamiga yetaklagan ustozlarimiz Saydi Umirov, Boybo ta Do'stqorayev, Muxtor Xudoqulov, marhum o'qituvshimiz Begali Qosimovning o'gitlari, hayotiy saboqlari hamon yodimda. Fursatdan foydalanih, barcha mehridaryo ustozlarimizni chin dildan muborakbod etaman!

Feruza JALIOVA,
Bosh muharrir o'rinnbosari

Biz tahsil olgan muqaddas dargoh bugun tabarruk yosh bilan yuzlashib turibdi. Bunday tantanali va ulug' kunlarda universitetning filologiya fakultetida o'qib yurgan kezlarim beixtiyor yodga tushadi. Bizga saboq ish faoliyatimda juda asqotyapti. Buning uchun ulardan behad minnatdorman.

Feruza ODIROVA,
bo'lim muharriri

Milliy universitet so'zi menga 7 yil saboq bergen chuqur ilm sohiblari, ustozlarim Qozoqboy Yo'ldoshev, Umarali Normatov, Abdug'afur Rasulov, Nasimxon Rahmonovni yodimga soladi. Avval bakalavr, so'ngira magistraturada o'qigan yillarda, ustozlarimdan nafaqat ilm, balki haqqoniylik, insoniylik, fidoyilik kabi yuksak fazilatarni o'rganishga harakat qildim. Yillar o'tgani sayin sevimli o'quv dargohimni, ustozlarimni, kursdoshlarimni sog'insam-da, bizni ana shu qutlug' dargohda uchrashitrgani uchun taqdирга shukronalik bildiraman. Zero, dunyodagi eng samimiyl va pok insonlar to'planadigan go'sha qayer, deb so'rashsa, hech ikkilanmay, O'zbekiston Milliy universitetining o'zbek filologiyasi fakulteti, deya javob beraman.

Gulyuz ORIFJONOVA,
bo'lim muharriri

Men jurnalistika fakultetining ham erka, ham ilg'or qizi edim. Talabalik davrim mazmunli, samarali o'tgan. Bugun esa gazetada ishlab, bolalar uchun xizmat qilishni boshlagan bo'lsam, shijoatli yoshlardan pallasida oz bo'lsa-da, yutuqlarga erishgan bo'lsam, shu muqaddas dargoh tufaylidir. Universitet menga ko'p narsa berdi. Ustozlarim Qudrat aka Ernazarov, Ramziddin aka Abdusattorov, Yoqutxon opa Mamatova, Latofat opa Toshmuhammedova kabi aziz insonlarning sabog'idan bahramand bo'ldim. Qadrond kursdosh do'stlar, eng muhimi, jurnalistdek sharafli kasb mutaxassisligi va katta hayotga yo'llanma oldim. O'zim esa balki talabalikdag'i ba'zi muvaffaqiyatlarim bilan Milliy universitet talabasi nomini oqlay olgan bo'lsam, qaniydi! Menimcha, bu nomni bir umr oqlashimizga to'g'ri keladi.

Sayyora JO'RAYEVA,
katta muxbir



Sahifalarni tayyorlaganlar:
Karimjon RIZQIYEV,
Nargiza JUMAYEVA,
Nuriddin SIROJIDDINOV,
Xurshida QODIROVA

Aziz o'quvchilar!

Har oyda gazetamiz sahifalarida qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida maqola, lavha, xabarlar berib boramiz. Bu galgi sahifamizda Angren va Turkmanistondan kelgan xabar va yangi she'rlar bilan tanishasiz.

Ба пешвози ҷашни 1150-солагии Абӯабдуллоҳи Рӯдакӣ

РӯДАҚӢ РАФТУ МОНД ҲИКМАТИ ЎЙ

Имрӯзҳо ба таҷлили зодрузи шоири шоирон, сардафтари адабиёти мумтози тоҷик Абӯабдуллоҳи Рӯдакӣ бо қарори ЮНЕСКО аҳли тамаддуни дунё камар бастааст.

Мактабҳои тоҷики, фалулаттҳои тоҷикини донишгоҳҳо, литестори омузшишгоҳҳои тоҷикини кишвари мо низ ҷашни 1150-солагии одамушшаро Абӯабдуллоҳи Рӯдакиро бо тайёрии пухта пешвоз зегиранд.

Ҳамин муносибат буд, ки донишҷӯёни Донишкадаи омӯзгории шаҳри Ангрен якҷоя бо дастаи ҳаваскорони мактбаҳои рақами 10 ва 17-ум, 15 апрел меҳмонони зиёдеро пазироӣ намуда, бо барномаи дилпазири худ дили ҳамагонро шод намуданд. Донишҷӯён аз ашъори Рӯдакии бузургвор шеърҳо мегуфтанд, мактаббачаҳои фаъол бошанд, бо рақсу сурудҳои дилнишини худ ба ҷашнвора шукуҳи хосае ато мекардан. Сурудҳои «Ҷашмони маст» ва «Дар соҳили Сирдарё»-и бародарон Зоировҳо, рақси «Оши палав»-и гурӯҳи донишҷӯён, озмуни «Ҳар бод, ки аз сӯи Бухоро ба ман ояд» ва саҳначаи «Бӯи чӯи Мулиён» хуб тайёр карда шуда, бо маҳорати баланд иҷро гарди.

Саҳнаи пургулу лола бо суруди «Мавчи дарё» ва рақсаши дар дили

бинандагон шавқу завқи беандозае бедор намуд. Зери суханони «Саҳнаро тайёр кунед, баҳор-баҳор мерақсад, Даваро гулзор кунед, ниғор-ниғор мерақсад» гулдухтарон мерақсиданду дили ҳар як тамошобин аз фараҳ лабрез мешуд.

Донишҷӯи курси 2-юми факултети филология Шаҳноза шеъри устоди ҳамин донишгоҳ, муаллифи якчанд китобҳои дарси Малик Кабироҷро бо истеъоди баланд қироат намуд.

Дар охир

шоир и

ширинкалом

Абӯалло

Субҳон, бо

шеърҳои бо



завқи баланд эҷодкардаи худ хотири ҳамагонро шод гардонид.

Дар хотимаи ҷашнвора аз устод Садриддин Айни низ ёдбуд намуданд, ки ҷашни 130-солагии у низ ба ҳамин рӯзҳо ростомадааст.

Чун одами бо кори неку номи некаш ҳамеша вирди забон мегардад, маликушишаро Абӯабдуллоҳи Рӯдакӣ низ сitorai raxshone буд, ки бо шеърҳои обдораш ҷилва намуда, бо хизмати худ дар инкишофи шеъру адаби давраи Сомониён мақоми арзанде гузоштааст. Чуноне, ки мегӯянд:

Рӯдакӣ рафту монд ҳикмати ўй,
Гул бирезад, мерезад аз вай буй.

Зебо БАҲОДУРЗОДА

ÖZBEGISTANDA TÜRKMEN DILINIŇ ÖWRENILIŞI

Kamiljan HALLYÝEW

Özbek halkynyň medeni mirasy örän köp taraplydyr. Onuň čuňňur taryhy kökleri bar. Milletiň aň-düşünjesiniň, milli buýsanjyň emele gelmeginde medeni miras güyçli serişdeder. Medeni gymmatlyklar garaşsyzlyk binýadynyň pugtalannmagyna hem ruhy esas bolup hyzmat edýär. Onda ahlak, hukuk, däppessur, edebiyat, sungat gymmatlyklary, taryhyň sapaklary we özygtyýarly Özbekistanyň raýaty bolan döwürdeşlerimiziň buýsanjy jemlenendir.

Özbekistanda türkmen diliniň öwrenilişi hakynda durup geçmekçi. Özbekistan Respublikasynyň Prezidenti Islam Karimowyň hut özünüň tagallasy bilen garaşsyzlyk alnan ilkinji ýyllardan başlap, ýurdumyzdaky türkmen mektepleri üçin türkmen dili boýunça okuwlitlaryny hem-de okuwlitlaryny neşir etmek işleri amala aşyrylyp başlandy. Bu iş häzir üstünlikli dowam etdirilýär.

«Türkmen dili» gazetiniň
2008-nji ýylyň 12-nji marts
sanyndan



БАЧЧАИ ЗАРАНГИ

Китоби хуб меҳонам,
Хисобро ҳам медонам.
Дуруст агар бүбини,
Ба подшо мемонам.
Ман меравам дабистон,
Ҳамеша ҷуз тобистон.
Ман гул дабистон гулзор,
Гул меравад ба бустон.
Баҳ, баҳ, чи рузмандам!
Ба тарсӯҳо мекандам.
Гар щери нар биёд,
Мегираш мебандам.
Ҳастам ҳамеша хушру,
Поку тамизу хушбу.
Ҳарфам ҳама хушоянд,
Корам ҳамеша неку.



Масъули саҳифа: Зебунисо ТОҲИРИЁН

Giyohvandlik asr vabosi


Kundan kunga rivojlanib, jahonga yuz tutayotgan jannatmakon yurt farzandi ekanligimdan faxrlanaman. Uning rivojavnaqiga o'z hissasini qo'shishga intilayotgan yosħlarimizdan biri bo'lishga intilaman. Olmoniyada magist-raturani tamomlayotgan Luiza opamga, Los-Anjelosda tahsil olayotgan Iroda opamga judajuda havas qilaman. Zero, yurtimiz kelajagining buyuk bo'lishi, poydevorining mustahkamligi ana shunday intiluvchan yosħlarimiz qo'lidadir.

Zimmamizdag'i jiddiy mas'uliyat zalvorini his qilgan holda, bizlar uchun yaratilgan sharoitlar, imkoniyatlar uchun o'z bilim va intilishlarimiz bilan javob bermog'imiz lozim.

Ammo sholi ham kurmaksiz bo'lmaganidek, oramizda beboshlik ko'chalariga kirib qolayotgan yosħlarimiz ham yo'q emasligini inkor etib bo'lmaydi.

Botir ismli bir yigitni taniyman. Kattagina oilaning to'ng'ich farzandi bo'lmish tabiatan og'ir, vazmin bu yigit maktabning oldi o'quvchilaridan biri hisoblanardi. Ustozlari-yu maktabdoshlarining birdek mehrini qozongan Botirjon bilim maskanining faxri sanalardi.

Yaqinda uning qilmishini eshitib, hayratdan yoqa ushladik. Ustozlari uning baholari pasayib, keyingi paytda ko'p dars



goldirayotgani haqida ota-onasiga xabar berishgandi. Ular esa bu holga unchalik e'tibor bérishmabdi. Botir esa bir necha bolalar bilan do'stlashib, aksariyat, vaqtini pana-pastqam joylarda o'tkazadigan, tashlandiq binolarda tunab qoladigan odat chiqaribdi. Asrimiz vabosi bo'lmish giyohvandlikning boshi bérk ko'chasiga kirib qolibdi. Giyohvandlik moddalarini sotib olish uchunesa talaygina pul kerak. Xo'sh, pulni qayerdan olishadi? Shunda Zokir ismli «do'sti»ning uzoq qarindoshini mo'ljalga olishibdi. Nasiba xolaning yolg'iz yashashi ularga qo'l kelibdi va xonadoniga o'g'irlikka tushishibdi.

Botir bilan Zokirning bu qilmishi zumda fosh bo'lib, el-u yurt oldida sharmanda bo'lishibdi.

Xo'sh, Botirning bunday ayanchli ahvolga tushib qolishiga kim sababchi? Albatta o'zi, dersiz?! Siz haqsiz. Lekin uning taqdiriga befarq bo'lgan, ustozlarining shikoyatiga e'tiborsizlik bilan qaragan, tunlari uya kelmasa ham, qayerda eding, deya tergamagan ota-onaning ham aybi yo'qmikin? Siz nima deysiz, tengdoshim?..

Nodira MURODOVA,
Toshkent viloyati,
Oqqo'reg'on tumani

TAMAKI BORMI, AMAKI...

YOKI
BOLANGIZNING DO'STI KIM?

Yaqinda bir do'stim bilan tanaffus payti do'konga kirdik. Aslida biror narsa tamaddi qılısh niyatida edik. Do'stim to'ppa-to'g'ri sigaretlar sotiladigan peshtaxta qarshisiga borib: «Tamaki bormi, amaki?» deb so'rab qolsa bo'ladimi?! Sotuvchi amaki voyaga yetmagan o'smirga sigareta sotmasa kerak, degan umidda qarab tursam, aksi bo'lib chiqdi. Sigaretlar orasidan o'ziga yoqqanini tanlab oldi-da, pulni to'lab chiqib ketdi. Men do'konga nima uchun kirganimni ham unutib, beixtiyor unga ergashdim. Do'stim meni maktabimiz qarhisidagi ko'p qavatlari uyning orqasiga boshladi.

— Ma, senam bittasini ol, — deya sigareti qutisini uzatdi. Men seskanib ketdim. Do'stimga sigaret chekishini bilmagan ekanman, hayratlanib unga qarab qoldim.

Do'stim holatimni tushundi chog'i, ma, bitta chekib ko'rgin, mazza qilasan, dedi. Chekmasligimni aytib, uni ham bu yo'ldan qaytarishga urindim.

— Sen hayotdan ancha ortda qolibsani, hozir chekish urf bo'lgan, — deya bemalol chekaverdi.

Qarasam, qarshimizdan yoshi ulug'roq bir kishi kelyapti. Zora do'stimga tanbeh bersa, degan umidda edim. Amaki bee'tiborgina o'tib ketdi...


Keyingi paytdarda qo'lda sigaret tutgan bolalarni, hattoki ayrim qizlarni ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Kattalar esa: «Och qornim, tinch qulog'im» qabilida ish tutishyapti. «Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona», degan naqlga ham amal qilmay qo'yishdi, chog'i. Ayrim ota-onalarimiz esa, mening bolam chekmaydi, deya ko'ngillarini to'q qilib yurishibdi. Lekin ularning ham pana-pastqamda, ota-onalaridan yashirib sigaret chekmasliklariga kim ham kafolot bera olardi?!

Sizningcha ayb kimda? Farzandlariga pul berib, nimalarga xarajat qilishayotganini surishirmayotgan ota-onalardami yoki bolalar uchun ishlashimiz?

Shu o'rinda ana shunday sotuvchi amakilarimga aytar gapim bor: Siz o'smirlarga sigaret sotayotgan ayni damda o'zingizning farzandingiz ham qaysidir do'kondan sigaret sotib olayotgandir, balki?!

Tengdoshlarim esa nima chekishayotganini bilib qo'yishsa, foydadan holi bo'lmasdi.

Qamariddin SHAYXOV



Nima chekayot-ganingizni bilib qo'ying!

GO'ZALLIKKA SHAYDO GULG'UNCHALAR

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi «Oltin baliqcha» nomli 16-maktabgacha ta'limga muassasasida kichkintoylar uchun «Jippi go'zal» nomli ma'rifiy-tarbiyiyi, musiqiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda muassasada tarbiyalanuvchi jippi qizaloqlar she'r aytish, qo'shiq kuylash va raqs tushish, shuningdek, turli boshqotirmalarni, ruhshunos sinovlarini yechish borasida o'zaro bellashdilar.

-Muassasamizda ayni kunda 430 nafar kichkintoy tarbiya oladi, - deydi ushbu maskan mudirasi Durdon Sobirova. - Garchi ushbu tadbirimizga tuman xalq ta'limi bo'limidan, qo'shni muassasalardan mehmonlarni taklif etgan bo'lsakda, bugungi tadbirimiz aslida kundalik tarbiyiyi mashg'ulotlarimizdan biridir.

Uning tashkil etilishida
alohida tashabbus ko'rsatgan guruh musiqa rahbari Chamangul Usmonovning xizmatini alohida qayd etish kerak. Qolaversa, tarbiyachilar GFayziyeva, D.Shimirboeva, A.G'oyipova, M.Turdiyeva, M.Shukurova, D.To'laboyeva, R.Nosirova ham ancha ter to'kdilar. Ularning har biri o'z kasbini puxta o'zlashtirgan, kichkintoylarga bor mehrini baxshida qiladigan, bilimini, tajribasini yurtimiz erkatoylarining kamolotiga nisor etuvchi pedagoglardir.

Tadbirda ishtirok etgan tuman xalq ta'limi bo'limi uslubchisi Saodat Saidxo'jayevaning fikrlaridan mazkur muassasa pedagogik jamoasining nafaqat tumanda, balki viloyatda ham alohida o'z o'rni borgilini bildik. Bundan ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi.

Nargiza AHMEDOVA



XITOV - SEHRLI VA QADIMIY O'LKA

«Olimp sari yo'l» tanloviga

Bolalar, siz Xitoy davlati haqida ko'pnarsalarini bilasizmi? Yoki u yerda yashaydigan oltin yungli tovuq, faqat bambuk yeydigan panda ayig'i haqidachi?

Keling, unda siz bilan xayolan birgalikda Xitoyning yam-yashil tabiatini va nabototi, fan va texnikasi olamiga sayrga chiqamiz.

Xitoy davlati haqida hech bo'Imaganda bir marta siz ta'limga olayotgan ilm maskaningizda ustozlarining so'zlab bergenlarini tinglagansiz-a?

Chindan ham Xitoy dunyo taraqqiyotida o'z o'rni, qadimiy tarixi, asriy an'analariga ega bo'lgan yirik mamlakatdir. Aholisi soniga ko'ra, dunyoda birinchi o'rinda turishini siz yaxshi bilasiz.

Insoniyat hayotidagi bir qator olamshumul kashfiyotlar aynan qadim Xitoy fani va texnikasi asosida dunyo yuzini ko'rgan. Bunga misol qilib, qog'oz, kompas, poroxli qurollarning Vatani Xitoy ekanligini ta'kidlash mumkin.



Xitoy nafaqat aholisi soniga ko'ra, balki jonivorlarning ko'pligi bilan, ham diqqatimizni tortadi. Dunyodagi jamiki jonivorlarning 11 foizi bu diyorda yashaydi va ularning turi besh mingga yaqinligini mutaxassislar aniqlab berishgan. Ayniqsa, Xitoya gigant pandasi, oltin yungli maymun, oq delfin, xem tovuqlari kabi jonivorlar yashaydiki, ularni boshqa mamlakatlarda uchratmaymiz.

Darvoqe, oltin yungli tovuqnini o'qishingiz bilan «Jek va loviya moyasi»



Hatto kitob nashr qilish jarayoni ham dastlab ushbu mamlakatda joriy etilgan, deyishadi.

Shuningdek, Xitoy o'zining hayvonot va nabolot ola mining boyligi bilan ham o'z o'rni ega.

nomli qiziqarli kinofilmni esladizingizmi? Albatta, bu ertakning qahramonini barchamiz sevib ham qolgandik. Ammo u qiziqarli ertak edi. Lekin bizning «Olimp sari yo'l» viktorina tanlovimizda qatnashsangiz, g'olibga aylansangiz oltin yungli tovuqni o'z ko'zingiz bilan ko'radingiz. Chunki tanlov g'oliblariga ajratilgan sovg'alar ichida Xitoya yo'llanma ham bor-da.

Bundan tashqari, Chuanshengan hududida oltin tovuq, Tibet tog'larida Shouday qushi va yashil to'tiqush kabi dunyoning boshqa yerida kam uchraydigan parrandalar yashaydi. Shuning uchundir Xitoy sehrli va qadimiy o'lka nomini olgan.

O'simliklar borasida esa qishki olxo'ri, orxideya, bambuk, xrizantema kabi go'zallik namunalarni ko'rganiningizda, Xitoya mo'jizalar ko'pligiga amin bo'lasiz. Bir so'z bilan aytganda, Shimoliy yarim shardan janub kengliklarigacha qanday o'simlik o'ssa, deyarli barchasini «Chin yurtida» ham uchratish mumkin.

Biz yuqorida tilga olgan mo'jizalarni bu yil Xitoya katta sport anjumanida, ya'ni navbatdagi yozgi olimpiya o'yinlarida sportchi aka-opalaringiz ko'rish baxtiga tuyassar bo'ladilar.

Ma'mura MADRAHIMOVA



Muassislari:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'Imagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOVA

Dizayner va sahifalovchi:
Elyor
ESHCHONOV
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan,

TAHRIR HAY'ATI:
Turbon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMU Bosh
muarrir o'rinosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muarrir o'rinosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftanining
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 54023
Buyurtma N: J 5105

YOG'OCHGA NAQSH ILA DOSTON BITGANLAR

Bugun yozmoqchi bo'lgan lavham qahramonini Respublika, o'quvchilar saroyidan topdim. U yog'och o'ymakorligi to'garagini rahbari. O'zi esa 24 bahorni qarshi olibdi. Tajriba va mahorati haqida fikr yuritmoqqa erta emasmikin, deb o'yaydi kishi, axir endigina bu yo'lning so'qmoqlaridan o'tib borayotgan bo'lsa?!

Dastavval men ham shu fikrda edim. Lekin u haqda hamkasblari ancha-muncha maqtovli gaplarni aytib qolishdi: «Serharakat, g'ayratli, ishning ko'zini biladi, erishayotgan muvaffaqiyatlari chakki emas...»

Ha, mana shu tiyrak ko'zli, chaqqon yigitda yana qanday fazilatlar mujassam ekan, deya uni suhbatga tortdim. Birinchi ilg'aganim o'zi haqida gapirishni yoqtirmaydigan kamtarin, kamsuqum ekan... Biroq, hayotni mehnat va kurashdan iborat falsafasini u oiladan, ota-onadan o'zlashtirib olgan, chamasi...

Hunarmand oilada dunyoga kelgan Saidkamol otasi Saidkarim Xo'jayev, onasi Mavluda opa ham hunarni e'zozlashadi, ular bugun oyna kesuvchi tadbirkorga aylanishgan. Saidkamolning ikki ukasi Saidakbar va Saidabror ham oilaning chinakam dastyori bo'lib qolishgan. Ota-onasi Saidkamolning xohishiga ko'ra, Xurshida ismli qizga uylantirishdi. Buni qarangki, kelinlari ham hunar egasi, yaxshigina chevar ekan. Endi bu oilada birinchi nabira, Saidkamolning esa birinchi farzandi -Saidvoris ulg'aymoqda.

Saidkamol Xo'jayev qanday qilib to'garak rahbariga aylandi? Axir bunga ko'nikma, bilim, malaka, iste'dod kerak-ku, dersiz... Bularning bariga u yoshlikning bebaho kunlarini zoye ketkazmay, hunar egallashning mashaqqatidan qochmay erisha bordi. 1999-yili Respublika rassomlar kollejining talabasiga aylandi. 2000-yili u hunarmand «Yoshlar» respublika tanlovida II o'rinni egallab, «Qo'li gul usta» sovrinini qo'lga kiritdi. 2003-yili ham «Tashabbus» tanlovida ishtirok etdi. «Yog'och o'ymakorligi» tanlovida uchinchini o'ringa sazovor bo'ldi. 2002-yili u o'qish



bilan birga mehnatni qo'shib olib borishga ahd qildi. Respublika o'quvchilar saroyining rahbari Elmurod Islomov uni iliq qarshi oldi. Ustozlari kim, qaysi maktabda tahsil olganlarini surishtirdi.

- Hakimjon Musayev nomli 38-tayanch maktabini tugatganman. Birinchi ustozim o'zimning otam, ulardan duradgorlik yo'nalishi bo'yicha saboq olganman.

U to'garak qatnashchilarini muvaffaqiyati borasida faxrlanib gapirdi. Abdulla Valiyev 2004-yili Farg'onada o'tkizilgan «Yosh hunarmandlar tanlovi»ning Behzod Qosimov va Sobit Azimov deya 2005-yil Toshkentda o'tkazilgan respublika tanlovlaringin g'olibi ekan. Salohiddin Yo'idoshev, Farrux Saidov, Miraziz Miradhamov, Saidabbos Saidazimov kun sayin mahoratini toplib, turli tanlovlardan ishtirokchilari bo'lish, eng muhim, xalqqa xizmat qilish borasida izlanish, bilim malakalarini oshirish yo'lida ekanlar...

Nasiba OCHILOVA

VIKTORINA SAVOLLARI



1. O'zbekiston va Xitoy xalq Respublikasi o'rtaida diplomatik aloqalar o'rnatilgan sana?
2. XXIV-Olimpiada o'yinlari o'tkazilish vaqt?
3. Xitoy hayvonot olamining rang-barang sevimli vakili?
4. Olimpiya mash'alasi yo'nalishidagi eng yuqori cho'qqi?
5. Bahor kunlarida O'zbekiston va Xitoy bolalarining o'xshash tomonlari?

Ma'mura MADRAHIMOVA

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftanining
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.